

ISH JOYLARINI TASHKIL ETISH VA REJALASHTIRISH DIZAYNER ISH JOYI

Axmedjanova Umida Baxodirovna

O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri,

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Sanoat dizayni kafedrasida dotsenti,

Muhiddinova Asel Ravshan qizi

O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri,

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Sanoat dizayni kafedrasida talabasi.

Annotatsiya: Mazkur ishda dizaynerning ish joyini tashkil etish va rejalashtirish tamoyillari, ergonomik talablar hamda samarali mehnat muhiti yaratish bo'yicha asosiy yondashuvlar yoritilgan. Dizayner faoliyati yuqori darajadagi diqqat, ijodkorlik va vizual tahlilni talab qilgani sababli, ish joyining qulayligi mehnat unumdorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ish joyini to'g'ri rejalashtirishda yoritish darajasi, mebel va texnik vositalarning joylashuvi, monitor balandligi, tana holati, rang-muhit va shovqindan himoyalalanish kabi ergonomik ko'rsatkichlar hisobga olinadi. Shuningdek, ish joyining funksional zonalarga bo'linishi, texnologik jarayonlar ketma-ketligi va xavfsizlik talablari ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari dizaynerlar uchun qulay, xavfsiz va samaradorlikni oshiruvchi mehnat muhitini shakllantirishda amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: dizayner, mebel, zamonaviy, ergonomika, xavf, joylashuv, elementlar, dizayn, xavfsizlik, material.

Annotation: This work explores the principles of organizing and planning a designer's workplace, ergonomic requirements, and key approaches to creating an efficient working environment. Since design work demands a high level of concentration, creativity, and visual analysis, the comfort of the workplace directly affects productivity. Proper workplace planning takes into account various ergonomic indicators such as lighting level, placement of furniture and technical equipment, monitor height, body posture, color environment, and noise protection. The study also examines the division of the workspace into functional zones, the sequence of technological processes, and safety requirements. The results provide practical recommendations for creating a comfortable, safe, and productivity-enhancing work environment for designers.

Keywords: designer, furniture, modern, ergonomics, risk, placement, elements, design, safety, material.

Kirish

Ish joyini oqilona tashkil etish, vaqtni tejash va eng muhimi, samaradorlikni oshirishi mumkin. Ish joyini tashkil etish va jihozlash eng yuqori darajada bo'lsa foydali bo'ladi. Dizaynerning ish joyi — bu faqat kompyuter va stol emas, balki ijodiy jarayonning to'liq shakllanishiga imkon beruvchi muhitdir. To'g'ri tashkil etilgan ish joyi dizaynerning diqqatini jamlashiga, samaradorligini oshirishga va sog'lig'ini saqlashga xizmat qiladi. Shu bois ish joyini rejalashtirishda ergonomik talablar, funksionallik, qulaylik va xavfsizlik tamoyillari muhim o'rin tutadi.

Ish joyini tashkil etishning birinchi talabi begona narsalarning yo'qligi hisoblanadi. Agar sizga ish stoli kerak bo'lsa, unda sizni chalg'itadigan yoki keraksiz sabablarga yetaklaydigan hech narsa yo'q bo'lishi kerak. Birinchidan, stolingizni turli xil axlatlardan - haykalchalar, keraksiz hujjatlarni, eski hisoblarni va kelgusi ish uchun ahamiyatsiz bo'lgan barcha narsalardan tozalash



Ish joyida mehnatni tashkil qilishning ikkinchi qoidasi - qo'lda zarur bo'lgan hamma narsa. U yoki bu narsaga erishish va undan foydalanish uchun sarflagan vaqtingiz minimal bo'lishi uchun hamma narsani taqsimlang. O'ng qo'llar uchun kerak bo'lgan hamma narsani stolning o'ng tomoniga, chap qo'lga kerakli narsalarni - chapga tomonga joylashtirish kerak.

Dizayner ish joyini to'g'ri tashkil etish yuqori darajadagi samaradorlik, qulaylik va ijodiy faoliyatning sifatli kechishini ta'minlovchi asosiy omillardandir. Dizaynerning faoliyati uzoq vaqt kompyuter bilan ishlash, rasm chizish, maket tayyorlash va turli materiallarni tahlil qilish jarayonlarini o'z ichiga olgani uchun ish joyi ergonomik talablarga mos bo'lishi,

toza, yorug‘ va funksional tarzda rejalashtirilgan bo‘lishi zarur. Avvalo, ish joyining ergonomikasi inson salomatligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Stol va kresloning balandligi, monitoring ko‘zdan masofasi, yoritish darajasi hamda tananing tabiiy holatini saqlab turish imkonini beruvchi mebel elementlari mushak-skelet tizimiga tushadigan yuklamani kamaytiradi. Dizayner uchun yorug‘likning to‘g‘ri taqsimlanishi juda muhim bo‘lib, tabiiy yorug‘lik eng maqbul sanaladi, ammo qo‘shimcha sun‘iy yorug‘lik ham neytral rang temperaturasi asosida tashkil etilishi ranglarni aniq idrok etishga yordam beradi.



Dizayner ish joyini tashkil etishning asosiy tamoyillari avvalo ish jarayonining qulay, xavfsiz va samarali bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan. Bunda ish joyining funkcionalligi, ergonomik talablarga mosligi, texnika va mebellarning to‘g‘ri joylashtirilishi muhim ahamiyatga ega. Dizayner ko‘pincha kompyuter, grafik planshet, eskizlar, rang namunalaridan foydalanishi sababli barcha vositalar qo‘l yetadigan masofada, tartibli va mehnat jarayoniga halal bermaydigan tarzda joylashtirilishi lozim. Ergonomika tamoyillariga ko‘ra, monitor ko‘z darajasida, stul belni to‘g‘ri ushlab turadigan, qo‘l va bo‘yin mushaklarini zo‘riqtirmaydigan bo‘lishi kerak.

Ish joyi yorug‘ligi tabiiy yoki yetarli sun‘iy yoritish bilan ta’minlanishi, rang muhiti esa ko‘zni charchatmaydigan, neytral tushlarda bo‘lishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, ish joyini tartibli saqlash, barcha elementlarni mantiqiy joylashtirish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va elektr jihozlaridan to‘g‘ri foydalanish ham dizayner ish joyini tashkil etishning asosiy talablari hisoblanadi. To‘g‘ri tashkil etilgan ish muhiti ijodiy jarayonni yengillashtiradi, diqqatni jamlaydi va mehnat unumdorligini oshiradi.

Ish joyining umumiy muhiti xotirjam, estetik va tartibli bo‘lishi dizaynerning fikrlash jarayonini tezlashtiradi va ijodiy kayfiyatni oshiradi. Binobarin, mehnat maydonini

rejalashtirishda funksional zonalarini ajratish yuksak natija beradi. Kompyuter bilan ishlash zonasi, qo‘l mehnati uchun mo‘ljallangan rasm chizish yoki maket tayyorlash zonasi, shuningdek, materiallar, rang namunalarini va hujjatlarni saqlash joyi sifatida alohida zona ajratilishi ish jarayonini tartibga soladi. Ushbu zonalar o‘zaro qulay joylashtirilsa, ortiqcha harakatlar kamayadi va mehnat unumdorligi oshadi.

Dizayner stoli keng, barqaror va bir vaqtning o‘zida bir nechta ish turini bajarishga mos bo‘lishi kerak. O‘tirib ishlashning asosiy vositasi bo‘lgan kreslo esa sozlanadigan, bel qismi qo‘llab turuvchi, qo‘l suyanchig‘i bor va uzoq ishlashda charchoqni kamaytiruvchi bo‘lishi lozim. Ish joyida tartibni saqlash uchun tokchalar, konteynerlar va asboblarni uchun maxsus bo‘limlar muhim ahamiyatga ega. Texnik qurilmalar ko‘pligi sababli kabellarni to‘g‘ri joylashtirish xavfsizlik va vizual tartibni ta‘minlaydi.

Shaxsiy qulaylik ham dizayner ish joyining ajralmas qismi hisoblanadi. Yengil, ko‘zni charchatmaydigan ranglar, yashil o‘simliklar, ilhom doskasi yoki moodboard joylashtirish ijodiy jarayonni qo‘llab-quvvatlaydi. Ish joyining to‘g‘ri tashkil qilinishi dizayner sog‘ligi uchun qulay muhit yaratibgina qolmay, balki kreativ yondashuvni kuchaytiradi, detallarni aniq ko‘rish va g‘oyalarning samarali amalga oshirishini ta‘minlaydi. Natijada bunday sharoitda faoliyat yuritadigan dizayner yuqori sifatli mahsulot yaratish, tez fikrlash va samaradorlikni oshirish imkoniga ega bo‘ladi.

Xulosa

Dizayner ish joyini to‘g‘ri tashkil etish mehnat unumdorligini oshiradi, sog‘liq uchun xavfsiz sharoit yaratadi va ijodiy jarayonni yanada samarali qiladi. Ergonomik talablarga rioya qilish, uskunalarni to‘g‘ri joylashtirish, yoritish va rang-muhitni puxta rejalashtirish dizayner ish faoliyatining asosiy omillaridan biridir. Qulay muhit — sifatli natijaning garovidir.

Adabiyotlar

1. Azizov S.T. Ta'lim muassasalarida xavfsizlik va qulaylikni ta'minlash yo'llari // Zamonaviy ta'lim. — 2023. — № 1(29). — B. 61–66.
2. Ergonomics for Children: Designing Products and Places for Toddlers to Teens / Edited by Rani Lueder and Valerie J. Berg Rice. — CRC Press, 2007. — 984 p.
3. Ergonomika asoslari. O‘quv qo‘llanma / Tahrir hay’ati: T. Karimov, D. Soliyev. — Toshkent: TDTTU nashriyoti, 2020. — 150 b.
4. GOST 11015-93. Mebel. Bolalar uchun xavfsizlik talab va normalari. Moskva: Standartinform, 2019.

5. Mahmudova Z.M. Maktab va bog‘cha mebellari ergonomikasi // Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — Toshkent, 2022. — B. 78–83.

6. Nuriddinov A.A., Ergashboyeva D.N. Bolalar muassasalarida ergonomik talablarga rioya qilishning ahamiyati // Pedagogika va psixologiya jurnali. — 2021. — № 4. — B. 45–50.

7. ERGONOMIK MEBEL QONUNIYATLARINING DIZAYNDA QO‘LLANILISHI. AU Baxodirovna - CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY, 2025 <https://tjst.org/index.php/USA/article/view/262>

8. BOLALAR UCHUN XAVFSIZ VA QULAY MUHITNING ERGONOMIKASI AU Baxodirovna - ... NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ' ..., 2025 <https://phoenixpublication.net/index.php/TANQ/article/view/4261>